

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

SO‘Z O‘YINLARINING PRAGMATIK TAHLILI

Komilova Shaxrizoda Sherzod qizi

Farg‘ona davlat universiteti lingvistika: o‘zbek tili

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

+998999198980 shahrizodaqahramonova19.09@gmail.com

ANNOTATSIYA. Jahon tilshunosligida matnni antropotsentrik nuqtayi nazardan talqin etish, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash bilan birga, ularni ilmiy jihatdan maxsus tadqiq etish, ayniqsa, xalqlarning kulgi qo‘zg‘atuvchi vositalari, latifalari, askiyachilik va qiziqchilik san‘ati, so‘z o‘yinlarini o‘rganishga e‘tibor kuchaydi. Turli xalqlar yumorining lingvostilistik xususiyatlarini izohlash, so‘z o‘yinlari matnining semantik-stilistik imkoniyatlarini aniqlash, so‘z ustalari nutqining ifoda imkoniyatlarini ochib berish soha rivojini ta‘minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, ushbu maqolada o‘zbek milliy so‘z o‘yinlarining lingvistik, stilistik hamda pragmatik xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar berildi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalari hisoblangan latifa, milliy askiya va qiziqchilik san‘atining lingvistik va stilistik jihatlari yoritildi. So‘z o‘yinlarining pragmatik xususiyatlari xalq og‘zaki ijodi namunalari misolida tahlil qilindi. Askia va qiziqchilik san‘atida tinglovchiga kulgi ulashishga sabab bo‘luvchi lingvistik, stilistik, pragmatik usullar, vositalar hamda birliklar haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: So‘z o‘yini, lisoniy o‘yin, kategoriya, xalq og‘zaki ijodi, lingvistik ijod, kontekst, pragmatik o‘yin, kinoya.

PRAGMATIC ANALYSIS OF PUNS

ANNOTATION. In world linguistics, along with the interpretation of the text from an anthropocentric point of view, the collection of samples of folk oral art, and their special scientific study, especially the study of the means of humor of the peoples, jokes, the art of askia and curiosity, and word games, have increased attention. Interpreting the linguo-stylistic features of the humor of different peoples, identifying the semantic-stylistic possibilities of the text of word games, revealing the expressive possibilities of the speech of word masters are important factors ensuring the development of the field. Taking these aspects into account, this article provides some comments on the linguistic, stylistic and pragmatic features of Uzbek national word games. The linguistic and stylistic aspects of jokes, national askia and curiosity, which are considered unique masterpieces of Uzbek folk oral art, are highlighted. The pragmatic features of word games were analyzed using examples of folk art. The linguistic, stylistic, pragmatic methods, means, and units that cause laughter in the listener in the art of asking and joking were considered.

Key words: Word game, language game, category, folk art, linguistic art, context, pragmatic game, irony.

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КАЛАМБУРОВ

АННОТАЦИЯ. В мировой лингвистике интерпретация текста с антропоцентрической точки зрения, наряду со сбором образцов устной народной словесности, их специальное научное изучение, особенно юмористических средств народов, шуток, искусства аскетизма и любопытства, а также слова повышенное внимание к обучающим играм. Интерпретация лингвистических и стилистических особенностей юмора разных народов, словесные игры. Выявление семантических и стилистических возможностей текста, раскрытие выразительных возможностей речи мастеров слова являются важными факторами, обеспечивающими развитие отрасли считается. Принимая во внимание эти аспекты, в данной статье рассматриваются лингвистические, стилистические и прагматические особенности узбекских национальных словесных игр. Были высказаны некоторые замечания. Языковое и художественное развитие анекдотов, народных шуток и курьёзов, считающихся уникальными шедеврами узбекского народного искусства, особое внимание уделено стилистическим аспектам. На примерах фольклора анализируются прагматические особенности словесных игр. Аския и любопытство в статье рассматриваются лингвистические, стилистические и прагматические приемы, средства и единицы, вызывающие смех у слушателя.

Ключевые слова: Игра слов, языковая игра, категория, народное творчество, языковое творчество, контекст, прагматическая игра, ирония.

KIRISH

Jahon tilshunosligida matnni antroposentrik nuqtai nazardan talqin etish, nutqda kulgi qo‘zg‘atuvchi vositalar, so‘z o‘yinlari, latifa kabi og‘zaki ijod ko‘rinishlarini o‘rganishga e‘tibor kuchaydi. Tilning yashash tarzi nutq bo‘lsa ham, nutq alohida sistema sifatida tilga zidlantirib kelindi. Chunki til imkoniyat sifatida buyuk qudratga ega bo‘lsa ham, uning bu qudrati nutqda reallashadi. Bu reallashuv til sathlarida namoyon bo‘ladi. Biroq tilning semantik imkoniyati ust sath bo‘lgan stilistikada namoyon bo‘ladi. So‘z va uning tovlanishlarini esa nutq belgilaydi. Ana shu tovlanishlarning eng nozik nuqtasi so‘z o‘yini.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida so‘z o‘yinlari tadqiqiga oid izlanishlar asosida quyidagi natijalar olingan: “so‘z o‘yinlari tilning fonetik, grafik, morfologik, leksik, sintaktik sathida ifodalanishi asoslangan (Moskva davlat pedagogika universiteti); lisoniy o‘yinlarning bolalar nutqida ham uchrashi isbotlangan (Chikago universiteti) lisoniy o‘yinlarning reklama matnlarida yuzaga chiqishi asoslangan (Rossiya davlat oliy pedagogika universiteti); rus va ingliz tiliga oid reklama matnlarida so‘z o‘yinlarining namoyon bo‘lishi dalillangan (Saratov davlat huquq akademiyasi); nemis tili materiallari asosida telediskurslarda lisoniy o‘yinlarning leksik-stilistik aspektda ifodalanish yo‘llari ko‘rsatilgan (Moskva davlat mintaqaviy

universiteti); badiiy matn kontekstida lisoniy o‘yinlarning o‘ziga xosligi yoritilgan (Rossiya Fanlar akademiyasining tilshunoslik ilmiy tadqiqotlar instituti); latifalarning lingvokulturologik jihatlarini ishlab chiqilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti); 100 jildli “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari”ni nashrga tayyorlash va uni tekstologik o‘rganish ishlari amalga oshirilgan (O‘zbekiston FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti); o‘zbek va ingliz latifalari misolida kichik janrlar matnlarining pragmatik, kognitiv va milliy-madaniy jihatlarini ko‘rsatib berilgan (Jizzax davlat pedagogika instituti); o‘zbek milliy so‘z o‘yinlari san’ati – askiyaning lingvostilistik xususiyatlari aniqlangan (Farg‘ona davlat universiteti)” (Dusmatov X., 2022:6)

Dunyo tilshunosligida lisoniy o‘yinlarni o‘rganish sohasida, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: so‘z o‘yinlarining lingvokulturologik jihatlarini aniqlash; so‘z o‘yinlarining lingvostilistik talablarini ishlab chiqish; lisoniy o‘yinlarning pragmatik - kognitiv xususiyatlarini aniqlash; so‘z o‘yinlarining turli nutq ko‘rinishlarida ifodalanishini asoslash; latifalarning milliy-madaniy jihatlarini ochib berish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tilshunoslik nazariy bilish bosqichiga ko‘tarilgan hozirgi davrda har qanday til hodisalari o‘zaro bog‘liqlikda va sistemaviy munosabatdorlikda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, hodisalarni til va nutq bosqichida o‘zaro aloqadorlikda, qolip hamda uning nutqda namoyon bo‘lishi tartibida tahlil etish kuchaydi. Natijada, “pragmatika atamasini qo‘llamaydigan tilshunos deyarli qolmadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Lekin yangi davr tilshunosligida bir pragmatik hodisaning turlicha nomlanishi yoki ikki hodisaning umumiy ko‘rinishlari, xossalari, o‘xshashligi tufayli ularni o‘zaro qorishtirish holatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, atamalarning mazmun-mohiyatini yoritishda har xillik yuzaga kelmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan o‘rganila boshlagan matnning implikatur birliklari tadqiqida ham ana shunday muammolar mavjud.

Professor Sh.Safarov «pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganiladi»(Safarov Sh., 2008:69-70), deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subyekti, nutq obyeksi, nutq vaziyati bilan bog‘liq xususiy masalalarini belgilab beradi.

Ayrim tilshunoslar pragmatikani matndagi munosabatlarga bog‘liq ravishda o‘rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko‘zlagan maqsadni qo‘lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari, deb e’tirof etdilar. Qanday bo‘lmasin, pragmatika nutq jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda ko‘riladi va sotsiolingvistika hamda semantika bilan uyg‘unlikda ish olib boruvchi tadqiqotning yangi sohasi hisoblanadi. Bugungi kun tilshunosligida nazariy pragmatika, pragmalingvistika, matn pragmatikasi, tarjima pragmatikasi yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida milliy so‘z o‘yinlarining prgamatik xususiyatlari va uni ifoda etuvchi til birliklarining strukturaviy xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Keng qamrovli lingvistik faoliyat turi sifatida lisoniy o‘yin hodisasining tadqiqi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi, chunki tilshunoslikda lisonning lingvokulturologik va pragmatik aspektlarini o‘rganish dolzarb bo‘lib borayotgan bir paytda lisoniy o‘yin diskursining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etishi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etila boshlandi. Ularning fikriga ko‘ra: “lisoniy o‘yin so‘zlovchi olami manzarasining bo‘lagini komik jihatdan aks ettiradigan kodlangan axborotni jamlaydi”(Shatrova, 2006:24). Shunga ko‘ra, aksariyat tadqiqotchilar tomonidan so‘z o‘yining mohiyati sifatida “tizimning simmetriyasini buzish natijasida o‘z-o‘zini rivojlantirish” (Пищальникова В.А., 2000:151) degan g‘oya ilgari surildi, so‘z o‘yini orqali namoyon bo‘ladigan hazil dunyoning lisoniy manzarasini aks ettirishning eng ijodiy usullardan biri sifatida qaraldi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, lisoniy o‘yin orqali jamiyatning u yoki bu qatlamiga xos, uning shakllanish jarayonida implitsit yoki eksplitsit tarzda madaniy qadriyatlar ifodalanadi. Bu esa tilni milliy zaminda turib tadqiq etishni taqozo etadi.

So‘z o‘yinlari hamma tur va janrlarning badiiy tasvir vositalari sifatida tasavvur qilinsada, biroq u satira-yumor xarakteridagi asarlarda ko‘proq hazil-mutoyiba quroli, kulgi chiqarish usuli bo‘lib xizmat qiladi.

So‘z o‘yini o‘zining maxsus ifoda vositalari hamda muayyan lingvostilistik talablariga ega emotsional-ekspressiv nutq ko‘rinishi hisoblanadi. Ular o‘zbek so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos lingvokulturologik jihatlarini namoyon etibgina qolmay, nutqning shirasini quyuqlashtiradi, ta’sir kuchini oshiradi, estetik jihatlarini ta’minlab, nishonga yo‘naltirilgan maqsadning harakatlantiruvchi kuchi (allofroniya)ga aylanadi. Bunday hodisalarga «ikki turli xil talqin va sharhga ega bo‘lgan holda, ifodaning noaniqligi» (amfiboliya) negizida yaratilgan «ikki ma’noli ifoda» (Aristotel) sifatida yondashish to‘g‘ri bo‘ladi.

Lingvistik adabiyotlarda lisoniy o‘yinning asosiy ko‘rinishi sanalgan so‘z o‘yini (ayn. kalambur, fran.calembour) so‘zlarning ko‘p ma’noligiga, fonetik strukturasi bir xilligiga asoslanadigan so‘z o‘yini, so‘zlarni shunday qo‘llashdan iborat nutq ko‘rinishi (Hojiyev A., 2002:41) sifatida ta’riflanadi.

Bizningcha, so‘z o‘yini o‘zida implitsit axborot ko‘lamini mujassam etadi. Implitsitlik «tilning yashirin kategoriyalari» sifatida talqin qilinadi. So‘zning tashqi shakli bilan ifodalanmaydigan, ammo uning ichki mazmunidagi kognitiv axborot fon bilimlar orqali idrok qilinadigan bunday lisoniy birliklar tilshunoslikda haligacha ko‘plab atamalar bilan yuritib kelinmoqda. Ularning ichida eng ko‘p qo‘llanadiganlari implikatsiya, implitsit mazmun, implitsit ma’no, implitsit axborot, yashirin fikr, ikkilamchi ma’no, ataylab qoldirib ketilgan fikr kontekstni rivojlantiruvchi tushunchalar. “Lisoniy ongda shakllanadigan bunday birliklar ko‘pincha semantik murakkabliklar, nutqdan oldin ifodalangan fikr, qo‘shimcha axborot, nutqdan anglashiladigan qo‘shimcha ma’no, semantik ellipsis, qo‘shimcha ma’no, emotsional mazmun, fikrning implitsit mazmuni, fikrning nazarda tutilgan ma’nosi, podtekst (tagma’no) kognitiv tilshunoslikda subfreymlar yoki freymnlarning terminallari, lingvistik semantikada esa

ma’noning implikatsionalligi, ko‘plab tadqiqotlarda implekatura atamasi bilan yuritib kelinmoqda.”(Dusmatov X., 2022:28)

So‘z o‘yini kontekstida ifodaning umumyashirin mazmuniy ko‘rinishlari bilan aloqador axborot ifodalanadi. Ifodaning umumyashirin mazmuni quyidagi ko‘rinish va uslubiy shakllarga ega: «implikatsiya, tagma’no, allyuziya, presuppozitsiya» .

So‘z o‘yinlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘rinishlarida keng ifoda etiladi: latifa va askiyalar, payrov va chandishlar, qo‘shiq va dostonlar, ertak va hikoyalar, xalq dramalarida ishlatiladi. Shuningdek, jamiyatimizning barcha sohalarida so‘zlovchilar u yoki bu darajada, albatta, so‘z o‘yini, hazil-mutoyiba va askiya elementlaridan foydalanadi. Bu xalqimizning milliy mentaliteti bilan bog‘liq nutqiy etiketga aylangan. Buning natijasida xalq og‘zaki ijodimizda so‘z o‘yiniga asoslangan maxsus janr – askiya paydo bo‘lib, uzoq tarixiy takomil yo‘lini bosib o‘tgan holda, butun insoniyatning nomoddiy-madaniy merosi sifatida YUNESKOning representativ ro‘yxatiga kiritildi. Askiya so‘z va jumalardagi tagdor kesatiq, istehzo, piching, mazax, shama va boshqa kulgi qo‘zg‘atuvchi rang-barang ko‘chma ma’nolarni ilg‘ab olib, unga munosib javob topa bilishdan iborat so‘z o‘yini san’atidir (Safarov O., 2010:315). YUNESKO ma’lumotnomasida belgilanganidek, askiya o‘zbek xalqining ijtimoiy hayoti va tili haqida lingvokulturologik ma’lumot berishda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek milliy so‘z o‘yinlari quyidagi jihatlari bilan boshqa nutq ko‘rinishlaridan farq qiladi: 1. Nutq so‘z o‘yinlari asosida shakllantiriladi. 2. So‘z o‘yini kontekstida birdan ortiq implitsit axborot ifodalanadi. 3. So‘z o‘yining semantik strukturasida ko‘ptalqinlilik; murakkablik; sinkretizm; polisemantik va polifunksionallik; ma’noviy va mazmuniy siljishlar; me’yordan chekinish.

So‘z o‘yinlari so‘zlarning ma’no nozikliklari (ottenka) asosida chiqariladigan hukm – presuppozitsiyaga ko‘ra anglashiladi (Rahimov U., 1994: 23). Askiya – milliy so‘z san’atining qurilishi boshdan-oyoq presuppozitsiyaga asoslanadi. Tinglovchi kommunikatsiya maqsadi haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lgandagina presuppozitsiyani tushunishi mumkin. Chunonchi, askiyachilar «raqib»larining laqablarini bilishi, ularning nimalarga sha’ma, ishora qilayotganligini, umuman, fikr nima haqida borayotganligini, gapning tagbilim orqali nazarda tutilgan mazmunini tez fahmlay olishlari, ularga munosib javob qaytarishlari lozim bo‘ladi. Natijada so‘z o‘yini asosidagi bellashuv yuzaga keladi.

So‘z o‘yini kontekstida, ko‘pincha, tadqiqotchi E.Ibragimova ta’kidlaganidek, kinoyaviy mazmun: “*kesatiq, piching, qochirim, kinoya, kulish, masxaralash, mazaxlash, zaharxandalik, uchuruq, istehzo, kalaka, shama, ermak, luqma, mayna, ta’riz, ilmoq*” (Ibragimova E., 2001: 20) kabilar ifodalanadi. Bu allyuziya hodisasi bo‘lib, lingvopoetikada «lot. allusio – ishora, hazil» – barchaga tanish omillarga ishora qilishga asoslangan stilistik usul deb talqin qilinadi. Allyuziyada ishora obyektining doirasi adabiyotshunoslikdagi talmehga nisbatan kengroq bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodida hazil, masxara, mazax, ermak, qiziq deb atalgan hodisalar mumtoz adabiyotimizda lutf, hajv, hazil-mutoyiba, zarofat deb atalgan bo‘lsa, mazax, masxara, ermak,

hazil kabi so‘zlar o‘zaro sinonim so‘zlardek ko‘rinsa-da, ular ma‘no nozikliklari bilan birbiridan farqlanadi.

Biz ushbu maqolada so‘z o‘yinlarining pragmatik xususiyatlarini latifalar misolida tahlil qilishga harkat qildik. Latifa barcha xalqlarda bo‘lgani kabi, hazil-mutoyiba va hajvga asoslangan matnli asar sifatida o‘zbek hajvchiligida eng yuqori o‘rinlardan birini ishg‘ol etishi, shubhasiz. Bugungi kunda nashr etilayotgan yuzlab gazeta va jurnallarning, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarning dam olish sahifalarida ham latifalarning o‘rin olishi buni tasdiqlaydi. Ma‘lumki, xalq ko‘pincha o‘zining dili tubida yashirgan jiddiy fikr-mulohazalarini hazil-mutoyiba asosida yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Shunday holatlarda latifa yordamga keladi. Latifalar mazmuniga qarab jamiyat hayoti va unda ro‘y berayotgan juda ko‘p hodisalar haqida ma‘lumot olish mumkin. Har bir latifa zamirida xalqning u yoki bu muammolarning asl ildizi, kelajak haqidagi orzu-umidlari o‘z ifodasini topadi. “Men kirmaydigan joy ekan”, deb nomlangan qadimiy latifalardan birida ifodalangan kichik hajviy lavha buning yorqin misoli bo‘la oladi:

Afandi qozi kalonlar ziyofatda o‘tirgan uyga kirayotib, ostonaga qoqilib ketibdi.

– Ko‘r bo‘ldingmi?! – deb jerkibdi qozi.

– Ha, ko‘r bo‘ldim, – debdi Afandi ko‘zlarini yumib. – Bu yerda kim bor?

– It bor, eshak bor, to‘ng‘iz bor, ahmoq! – deb baqiribdi qozi.

– Unday bo‘lsa men kirmaydigan joy ekan, bemalol o‘tiraveringlar, – deb chiqib ketibdi Afandi.

Yuqoridagi latifada tilga olingan muammolardan biri jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish kuchayib ketganligi va buning natijasida kishilarni toifalarga ajratib muomala qilish avj olganligidir. Latifaning qozi tomonidan aytilgan “It bor, eshak bor, to‘ng‘iz bor, ahmoq!” gapiga javob tariqasida aytilgan so‘nggi “Unday bo‘lsa men kirmaydigan joy ekan, bemalol o‘tiraveringlar” jumlasida ana shu muammoning ijtimoiy ildizi ayovsiz ravishda ochib tashlangan. Buning uchun latifa qahramoni qozining so‘zlarini o‘ziga nisbatan do‘q-po‘pisa emas, balki, bir jihatdan ko‘chma ma‘noda (agar sizlar it, eshak, to‘ng‘iz bo‘lsalaring deb), ikkinchi jihatdan o‘z ma‘nosida, ya‘ni o‘zi kirgan joyda it, eshak, to‘ng‘iz bor ma‘nosida tushunganday qilib ko‘rsatishi hamda shunga yarasha javob qaytarishi asosiy rol o‘ynagan.

Tilning ifoda imkoniyatlari cheksiz, faqat ulardan hozirjavoblik bilan o‘rinli foydalana olishgina ana shunday kulgili vaziyatlarni yuzaga chiqaradi. Hozirjavoblik (improvizatsiya) va zakiylik o‘zbek milliy askiyasi, latifa va qiziqchililigi xos eng asosiy xususiyat hisoblanib, bular kundalik hayotda ham nutqga espressivlik, emotsionallik bag‘ishlaydi:

Er: Xotin, qara, mana shu ketayotgan eshak senga qarindosh bo‘ladi.

Xotin: Ha, mana shu ketayotgan eshak erim tomondan qarindosh bo‘ladi.

(Hojiboy Tojiboyev ijodidan)

So‘z o‘yinlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘rinishlarida keng istifoda etiladi: latifalar, askiyachi va qiziqchilar nutqlarida, payrov va chandishlar, qo‘shiq va dostonlar, ertak va hikoyalar, xalq dramalarida ishlatiladi.

To‘plangan lisoniy dalillarimiz tahlili shundan dalolat beradiki, qiziqchilar nutqida so‘z o‘yinlari hazil-mutoyiba, qochiriq, kulgi qo‘zg‘atuvchi xarakterda bo‘ladi. Ushbu fikrlarimizni asoslash uchun ayrim so‘z ustalarimizning so‘z qo‘llash jihatlariga e‘tibor qaratamiz. O‘zbek so‘z ustalari orasida Hojiboy Tojiboyev alohida ajralib turadi. Uning boshqa bir so‘z ustalarimiz, qiziqchi va askiyachilarimizda u chramaydigan o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- orttirma darajani ifodalovchi -roq shaklini takror qo‘llash: “Mana men o‘zim ham bir necha bor borib, konsert qo‘yganman. Navoiy viloyatida ruslar ko‘p roq- roq xizmat qiladigan bir harbiy qismga bordim...”

- tilimizda tasdiqni ifodalovchi “xuddi shunaqa” so‘zini kesatq va inkor mazmunida qo‘llash. Qiziqchi ushbu so‘zlarni o‘zgacha bir kinoyaviy ohangda aytadiki, kontekstda “aslida unday emas” degan qarama-qarshi mazmun anglashiladi: “Yevropada molga e‘tirom, e‘zozlash o‘ta yuqori. Bizda-chi? Bizda ham xuddi shunaqa”.

- pragmatik-kinoyaviy mazmundagi okkazional hosiladan foydalanish: “hho‘-hho‘-hho‘, hho‘-hho‘-hho‘”.

So‘z o‘yinlarining keng tarqalgan usullaridan biri - bu nutqiy vaziyatda so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’noda baravar qo‘llash hisoblanadi. Buning uchun qiziqchilar ko‘pma’noli so‘zlarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga hamda iboralarga e‘tiborli bo‘lishlari talab etiladi. Masalan:

- Hojiboy aka, mana shu kitobimga qo‘l qo‘yib bersangiz.
- Tap etib qo‘l qo‘ydim. (Hojiboy Tojiboyev) Yuqoridagi misolda qo‘l qo‘ymoq ifodasi leksik omonimiyaga misol bo‘ladi.

Ya’ni:

- 1) qo‘l qo‘ymoq - biror narsa ustiga qo‘lini qo‘ymoq;
- 2) qo‘l qo‘ymoq - imzo chekmoq kabi ma’nolarni ifodalab kelgan.

Qiziqchilar o‘z nutqida sinkretik so‘z o‘yinidan ham foydalanadilar. Ushbu so‘z o‘yinida birdan ortiq lingvistik hodisalar qorishib ketadi. Quyidagi misolda polisemantik va polifunksional so‘zning kontekstda turli ma’no va vazifada kelib, ularning qorishib ketganligini ko‘rishimiz mumkin:

Men deputat bo‘lsam, rohat-farog‘atda yashaysizlar, deb va’da bergan deputat obrazida qiziqchi G‘ayrat Ahmedov choyxonada dam olib turganida bir saylovchi kelib norizolik ohangida:

- Sizdan bita narsa so‘rab olsam maylimi, - deydi.
- Mayli so‘rayvering.
- Siz o-o saylanayotganingizda meni saylasanglar, rohat-farog‘atda yashaysizlar degandindiz. To‘g‘rimi?
- To‘g‘ri.
- Endi-chi? Hozir nima bo‘lyapti?

- Hah, aytingchi, men deputat bo‘lib saylanmasdan oldin, ular qaysi ko‘chada yashar edi?

- Mexanizatorlar ko‘chasida.

- O‘lmang, o‘lmang! Ha, hozir-chi? Ko‘chalaringizning nomi nima?

- Hozirmi? “Rohat-farog‘at”.

- Xo‘sh, qayerda yashayapsizlar ekan?!

Matnda qo‘llangan rohat-farog‘at juft so‘zi to‘kin-sochinlik, farovonlik ma‘nosida va ko‘chaning nomi ma‘nosida qo‘llangan bo‘lib, bir paytning o‘zida ravish holi va o‘rin holi vazifasini bajarmoqda. Boshqa nutq ko‘rinishida biron bir so‘z kontekstda faqat bir gap bo‘lagi vazifasida kelsa, so‘z o‘yinlarini hosil qilishda ayrim til birliklari birdan ortiq gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanishi e‘tiborlidir. Chunki so‘z o‘yini hosil qilishda me‘yoriylikdan chekinish, so‘zlarni ataylab ko‘ptalqinli tarzda qo‘llash lozim bo‘ladi. Mana shu jihati bilan so‘z o‘yinlari matni boshqa nutq ko‘rinishlaridan keskin farq qiladi. So‘z o‘yining ushbu semantik-sintaktik- stilistik xususiyatlari, ayniqsa, askiya san‘atiga xosdir.

Qiziqchilar o‘z nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi usullar orasida uslubiy sintagmalash usulidan ko‘proq foydalanadilar. Uslubiy sintagmalash, poetik sintagmalash atamaları tadqiqotchi X.Dusmatov tomonidan o‘zbek askiyachilik, qiziqchilik san‘atida, shuningdek, poetik va publisistik nutq ko‘rinishlarida qo‘llanishi isbotlangan. Ayniqsa, askiya va qiziqchilikda so‘z o‘yining keng tarqalgan turi hisoblanadigan ushbu usul so‘zlarni maqsadli biriktirish yoki so‘zni komponentlarga bo‘lishdan iborat bo‘lib, bunda so‘zlarni bo‘lib talaffuz qilish hamda to‘xtam (pauza) alohida stilistik qimmatga ega bo‘ladi hamda sintaktik- stilistik aloqa natijasida birdan ortiq axborot ifodalanadi:

-Xalqdan pul olsa-chi?

- Ho-o-o kimligini aytmayman.

- Daraxt kessa-chi?

- Ho-o-o kimligini aytmayman.

- Uy buzza-chi?

- Ho-o-o kimligini aytmayman.

- E-e, bo‘ldi qiling-e. Nimaga aytaysiz, xojayin? Ayting unda, tushuntirib bering-chi.

- Jinnimisan, qamalib ketaman-ku. (“Aristokratlar” jamoasi)

Ushbu hajviy matnda so‘z o‘yini katta ijtimoiy-lisoniy vazifa bajargan. Dialogik nutqda asosiy maqsad hokimlarning jamiyatdagi qing‘ir ishlarini fosh qilishga qaratilgan: “Hooo kimligini aytmayman” gapining asosiy mazmuni “hokimligini aytmayman” (hokim ekanligini aytmayman) bo‘lib, fikr alyuziv tarzda so‘z o‘yini vositasida yuzaga chiqarilganligi o‘ziga xos tarzda bir kulgi qo‘zg‘atishga xizmat qilgan.

O‘zbek milliy latifalarining aksariyatida go‘zal hozirjavoblik bilan birga, “tasdiqlab turib, mot qilish” an‘anasi yetakchilik qiladi. Bunga yanada aniqlik kiritish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz:

- Azizim, meni sevasizmi?
- Sevaman!
- Gapingiz rost bo‘lsa, chekishni tashlang...
- Tashlayman!
- Ichishni ham tashlaysiz-a?
- Ha!
- Maoshingizni menga olib kelib berasizmi?
- Beraman maoshimni hammasini!
- Voy, meni deb joningizdan ham voz kechishga tayyormisiz?
- Tayyorman! Nima qilaman bunaqa hayotni?

XULOSA

Xullas, o‘zbek milliy qiziqchiligi san’atida so‘z o‘yinlari hajv yaratish uchun asosiy uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qiziqchilar nutqida so‘z o‘yinlaridan foydalanish tinglovchilarga emotsional-estetik zavq bag‘ishlab, fikrning ta’sir kuchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Latifa janri, askiya va qiziqchilik san’ati, ularning ijrochilari nutqida ko‘plab so‘z o‘yinlari mavjud bo‘lib uning tahlilini bitta maqolaga sig‘dirish, tadqiq etish biroz mushkul. Shunday bo‘lsa-da, ushbu maqolada so‘z o‘yinlarining tasniflanishi latifa, askiya hamda qiziqchilik san’ati misolida amalga oshirildi. So‘z ustalari nutqida yuzaga kelgan so‘z o‘yinlari, okkozional ma’no, kulgi qo‘zg‘atuvchi birliklar tahlil qalandar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дусматов Х. Ўзбек миллий сўз ўйинларининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. док.(DSc)... дисс. – Фарғона, 2022. –Б. 217.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. –Б. 41
3. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул хамда воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2001. –Б. 20.
4. Пищальникова В.А. Языковая игра как лингвосинергетическое явление // Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. – Барнаул, 2000. –С. 151
5. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. –Б. 23.
6. Safarov. Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. - Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 69-70-b
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: Musiq, 2010. –B. 315.
8. Соссюр Ф. де Труды по языкознанию.- М.: Прогресс, 1977.

9. Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожиной; члены редколлегии: Е.А.Баженова, М.П.Котюрова, А.П.Сковородников. - 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011.

10. Витгенштейн Л. Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.- М., 1985.

11. Шатрова Т. И. Языковая игра в англоязычных текстах комической направленности: процессы кодирования и декодирования: Автореф. дисс... кан. филол. наук. –Тула, 2006. –С. 24.